

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Зумрад Бойхўразовна Раҳмонкулова XXI АСР ТУРКИЯ ТАРИХШУНОСЛИГИДА ЖАДИДЧИЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	5
2. Gulnara Rashidovna Joldasbaeva QORAQALPOQLARNING AN'ANAVIY SUT MAHSULOTLARI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI.....	11
3. Nigora Azadovna Egamberdiyeva XORAZMNING QADIMIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI (KULOLCHILIK TARIXI MISOLIDA).....	17
4. С.И.Габриэльян СРЕДНЕВОСТОЧНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РУССКО-ГЕРМАНСКОГО СОПЕРНИЧЕСТВА НАКАНУНЕ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	23
5. Risolat Davron qizi Murodova ILMIY MEROSNI SAQLASHDA ILMIY MUZEYLARNING O'RNI: TAJRIBA VA TAHLIL...	35
6. Shukrullo Nasriddinov, Dilshod To'xtasinov O'RTA OSIYO DINIY-MONUMENTAL ME'MORCHILIGINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA.....	42
7. Sherbek Axmedovich Omanov, Shukrullo Nazrullayevich Nasriddinov AXSIKENT YODGORLIGI ASOSIDA O'RTA ASRLAR UY - JOY XO'JALIGI MODDIY MADANIYATINING O'RGANILISHI.....	48
8. Матлуба Бойхурозовна Раҳманкулова XVI–XVII АСРЛАР МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУҚОВАЛАРИДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ҲИРОТ МУҚОВАСОЗЛИК УСЛУБИ АНЪАНАЛАРИ.....	54
9. Abdulla Nuritdinovich Rasulov, Nurillo Abdulboqiyevich Rejabboyev SAMARQAND VILOYATI OCHARCHILIK OQIBATLARINI TUGATISH KOMISSIYASI FAOLIYATI.....	63
10. Рустам Султонмуродович Солиев XX ASRDA TURKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATLAR.....	71
11. Xayrullo Lutfillojon o'g'li Xolmirzayev QO'QON XONLIGIDA 1853-YIDAN KEYINGI SIYOSIY HARAKATLAR VA MALLAXONNING HOKIMIYATGA KELISHI.....	76
12. Mirzabek Karimjon o'g'li Xolboyev FARG'ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	82



Nigora Azadovna Egamberdiyeva,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
professori, t.f.d.
egamberdievanigora564@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-0705-3118>

XORAZMNING QADIMIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI (KULOLCHILIK TARIXI MISOLIDA)

For citation: Nigora A.Egamberdiyeva. HISTORY OF ANCIENT CRAFTS OF KHOREZM (IN THE EXAMPLE OF THE HISTORY OF POTTERY). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 7.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807396>

ANNOTATSIYA

Ilk temir davrida qadimgi Xorazm hududida chorvador qabilalar yashagan. Amirobod madaniyati, Kuyisoy va Meshekli yodgorliklarida qoʻlda yasalgan kulolchilik buyumlari topilgan. Miloddan avvalgi VII asr oxiri – VI asr boshlarida Xorazmda kulolchilik buyumlari charxda yasaliib, ikki pogʻonali oʻchoqlarda pishirilgan. Ahamoniylar davridan kulolchilik buyumlarini qizil angob bilan bezatishgan. Bu Xorazm kulolchiligining oʻziga xos tomoni hisoblanadi. Ular kulolchilik buyumlarini ichki bozor uchun ishlab chiqarganlar. Miloddan avvalgi IV asrdan kulolchilik buyumlari ishlab chiqarishda mahalliy xususiyatlar paydo boʻladi. Shaharlar tashqarisida yirik kulolchilik ustaxonalari tashkil etilgan. Tashqi bozor uchun kulolchilik buyumlarini ishlab chiqara boshlaganlar. Maqolada kulolchilik buyumlari ishlab chiqarishning tadrijiy rivojlanishi bayon qilingan. Kulolchilik buyumlari har bir davrda va hududlarda oʻziga xos tarzda ishlab chiqilgan boʻlsa-da, butun bir mintaqada ularni ishlab chiqarishda oʻxshashlik jihatlarining kuzatilganligi asoslangan. Bu esa, qadimda Oʻrta Osiyoda turli qabilalar yashagan boʻlishiga qaramay, ularning rivojlanishida umumiylik boʻlganligini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: keramika, kulolchilik, charx, xumdon, Humbuztepa, Amirobod, Quysisoy, Meshekli.

Эгамбердиева Нигора Азадовна,
Ташкентский университет прикладных наук
Профессор, д.и.н.
egamberdievanigora564@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-0705-3118>

ИСТОРИЯ ДРЕВНИХ РЕМЕСЕЛ ХОРЕЗМА (НА ПРИМЕРЕ ИСТОРИИ КЕРАМИКИ)

АННОТАЦИЯ

В раннем железном веке на территории древнего Хорезма жили скотоводческие племена. На памятниках Амирабадской культуры, Куюсайской и Мешеклы найдены лепные керамики. В конце VII - в начале VI веках до нашей эры в Хорезме производили керамику на

гончарном круге и обжигали их в двухъярусных горнах. Использовали красный ангоб с ахеменидской эпохи, что и являлся особенностью хорезмской гончарной керамики. Производили керамику для внутреннего рынка. С IV века до н.э. в производстве керамики проявляются местные особенности. Крупные гончарные мастерские организовали за пределами городов. Производили керамику для внешнего рынка. В статье описывается развитие гончарного производства и доказывается, что в каждом периоде и в каждом регионе в гончарном производстве были свои особенности, но в них наблюдались сходства по всему региону. Это указывает на то, что, несмотря на то, что в древней Центральной Азии проживали различные племена, но в их развитии существовали общие черты.

Ключевые слова: керамика, горн, гончарный круг, Хумбузтепа, Амирабад, Куйисай, Мешекли.

Nigora A.Egamberdiyeva,
Tashkent University of Applied Sciences
Professor, DSc.
egamberdievanigora564@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0005-0705-3118>

HISTORY OF ANCIENT CRAFTS OF KHOREZM (IN THE EXAMPLE OF THE HISTORY OF POTTERY)

ABSTRACT

In the early Iron Age, cattle-breeding tribes lived in the territory of ancient Khorezm. On the monuments of Amirabad culture, Kuyusay and Meshekli found stucco ceramics. At the end of 7th and at the beginning of the 6th century BC, in Khorezm, pottery was prepared on a potter's wheel and burned in two-tier furnaces. They used red engobe from the Achaemenid era, which was a feature of Khorezm pottery ceramics. Ceramics were produced for the domestic market. From the 4th century BC revealed local features in the production of ceramics. Large pottery workshops organized for the redistribution of cities. Ceramics were produced for the foreign market. The article describes the development of pottery production and demonstrates that each period and region had its own unique characteristics, but similarities were observed throughout the region. This indicates that, despite the diverse tribes inhabiting ancient Central Asia, there were common features in their development.

Index Terms: ceramics, horn, potter's wheel, Humbuztepa, Amirabad, Kuyisay, Meshekli.

1. Dolzarbligi:

Insoniyat tarixida hunarmandchilikning eng qadimiy, keng tarqalgan turi kulolchilik hisoblanadi. Kulolchilik mahsulotlari insonlar hayotining eng muhim zaruriyati bo'lishi bilan birga, o'tmish tarixni o'rganishda ham eng muhim manba bo'ladi. Kulolchilik buyumlarining turi, tarkibi, bezagi orqali insonlarning turmush tarzi, yashagan hududlari, davrlari va ijtimoiy tarkibini aniqlash mumkin.

Kulolchilik buyumlari insonlarning turmush tarzi va xo'jalik turiga qarab, ikki xil uslubda tayyorlangan. Insoniyat tarixining neolit, eneolit davrlarida va ko'chmanchi chorvadorlar sopol idishlarni qo'lda yasab, ochiq gulxanlarda pishirganlar. Dehqonchilik xo'jaligi hukmron bo'lgan xo'jaliklarda, asosan, bronza davridan boshlab, kulolchilik buyumlari charxida ishlanib, ikki yoki bir pog'anali xumdonlarda pishirilgan. Kulolchilik charxining qo'lda va oyoqda aylantiriladigan turlari bo'lgan. Yaxshi loydan tayyorlangan, oyoq charxida yupqa qilib ishlov berilgan va ikki pag'onali xumdonlarda pishirilgan sopol idish eng sifatli sanalgan.

Amudaryoning quyi havzasida joylashgan qadimgi Xorazmda kulolchilik hunarmandchiligi bosqichma-bosqich uzviy tarzda rivojlangan. Tadqiqotchilar ilk temir davridan to'afriq'iyalar davrigacha qadimgi Xorazm hududida sopol buyumlari ishlab chiqarishning tadrijiy rivojlanishini kuzatganlar [6. -B.85].

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Qadimgi Xorazmda shakllangan kulolchilik buyumlari XX asrning ikkinchi yarmida S.P.Tolstov tomonidan o'rganilgan [9;10;11]. Olim dastlabki sopol idishlar Kaltaminor madaniyati aholisi tomonidan neolit davrida yaratilganligini qayd qilgan. Ilk temir davri yodgorliklaridan topilgan kulolchilik buyumlari M.Mambetullaev, S.B.Bolelov va S.R.Baratovlar tomonidan o'rganilgan. [1;2;8].

Qadimgi Xorazm hududida shakllangan va rivojlangan kulolchilik hunarmandchiligi M.G.Vorob'evaning "Керамика Хорезма античного периода (Antik davrda Xorazm keramika)" nomli ilmiy asarida mukammal yoritilgan. Bu ilmiy maqola bugungi kungacha sopol buyumlari tarixini o'rganishda etalon vazifasini o'tab kelmoqda. Tadqiqotga asos qilib Ko'zaliqir, Jingilji, Qo'yqirilgan qal'a, Qalali-qir, Tuproqqal'a, Anqaqal'a va boshqa yodgorliklar olingan. U yerlardan topilgan sopol buyumlar va xumdonlar keng taxlil qilingan.

M.G.Vorob'eva o'z tadqiqotida sopol buyumlarning xronologik klassifikatsiyasida S.P.Tolstov tomonidan ilgari surilgan klassifikatsiyani asos qilib olgan [6. -B.65]. Arxaik, qangyuy va kushonlar davrlariga ajratgan holda taxlil qilgan. Bu klassifikatsiyaga keyingi davr tadqiqotchilar o'zgarish kiritgan xolda taxlil qiladilar, chunki qadimgi Xorazm mil.avv. IV asrda mustaqil davlat sifatida faoliyat yuritgan. Shu sabab bugungi kun tadqiqotchilar mil.avv. IV asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrni qadimgi Xorazm davlati tarixi sifatida berishadi [5. -B.79].

3. Tadqiqot natijalari:

Ilk temir davrida, ya'ni mil.avv. IX-VIII asrlarda Oqchadaryo bo'ylarida tarqalgan Amirobod madaniyati aholisi sopol buyumlarni qo'lda ishlaganlar. Ularning sopol buyumlarining qorni qavariq, gardishi ko'p qayirilgan yoki to'g'ri qilib ishlangan. Sopol loyining tarkibida ko'p miqdorda shag'al bo'lganligi sababli, idishlarning devori qalin, qo'pol qilib ishlangan [9. -B.69]. Sopol idishlarning gardishiga archasimon tarzda naqshlar chizilgan. Bozorqal'a yodgorligidan Amirobod madaniyatiga oid kulolchilik buyumlari topilgan. Ular qo'lda ishlanib, och qizil rang bilan bezak berilgan [12. -B.85]. Amirobodliklar butun bir jamoa bo'lib, sopol idishlarni pishirish bilan birgalikda shug'ullanganlar. Ular buni ochiq manzilgohlar yoki maxsus tepaliklarda amalga oshirganlar [5. -B.5]. Sopol idish ochiq katta gulxanlarda pishirilsa, idish yaxshi pishib atrofi qorayib qolmagan. Amirobod madaniyatidan topilgan sopol idishlar orasida yaxshi pishirilgan idishlar ham uchraydi. So'nggi amirobod davridan qo'l charxidan foydala boshlaganlar [9. -B.85].

Mil.avv.VIII-V asrlarda qadimgi Xorazm hududida Quvisoy madaniyati va Meshekli yodgorligi aholisi ham iste'qomat qilgan. Ular chorvador aholi bo'lganligi sababli sopol idishlarni qo'lda yasab, qizil angob bilan bo'yaganlar [1. -B.26-27].

Ilk temir davrida qadimgi Xorazmda yashagan aholi kulolchilik mahsulotlarini ibtidoiy uslubda ishlaganlar. Lekin mil.avv.VII asrning oxirlari va VI asrning boshlarida jamiyatda yuz bergan tub o'zgarishlar kulolchilik sohasiga ham ta'sir ko'rsatgan. Kulollar endilikda sopol buyumlarni charxda yasab, ikki pag'onali xumdonlarda pishirganlar va ularni ichki bozorga olib chiqqanlar. Sopol idishlarning shakli ham oldingi davrdagidan tubdan farq qilgan.

Qadimgi Xorazmda bugungi kungacha topilgan eng qadimiy xumdon mil.avv. VI asrning oxiriga oid bo'lib, Xumbuztepa yodgorligidan topilgan. U ikkipag'onali, tik mo'rili, doirasimon shaklda qurilgan. Xumdon mil.avv. I ming yillikning o'rtalariga oid Marg'iyona hududidan topilgan xumdonlarga o'xshatib qurilgan [5. -B.85]. Xumdon yonida ustaxona joylashgan. U yerda sopol buyumlari tayyorlangan. Xumbuztepa yodgorligidan hunarmandchilik ustaxonalari va ko'plab kulolchilik toshqollari va axlat o'ralari topilgan. Bu yerdagi xumdonlarning kattaligi 2,2 metrdan 7,5 metrgacha bo'lib, ular atrofida kul, haykalchalarning siniqlari, idishni pishirishda ishlatiladigan tagliklar, pishgan va xom g'isht bo'laklari topilgan. Bu topilmalar Xumbuztepaning sopol buyumlari ishlab chiqarish hunarmandchilik markazi bo'lganligini asoslaydi.

Xumbuztepadan topilgan silindirkonik shaklli yirik xumlarga turli xil tamg'alar qo'yilgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu ustalarning tamg'alari bo'lishi mumkin [13. -B.95]. Lekin mil.avv. IV-III asrlarga oid Xumbuztepa III qatlamidan bunday tamg'alar qo'yilgan buyumlar topilmagan. Aksincha, shu davrdan boshlab, sopol idishlarga, pishirishdan oldin, o'tkir tig' bilan oddiy belgilar qo'yilgan va bunday sopol idishlar butun Xorazm hududidan topilgan [2. -B.65].

Tadqiqotchilar fikricha, Xumbuztepa orqali butun qadimgi Xorazmga hunarmandchilik tajribalari tarqalgan. Chunki Xorazm vohasining boshqa hududlaridan topilgan xumdonlarning barchasi keyingi davrlarga oiddir. Ko'zaliqir qal'asi atrofidan va Jingilji qo'rg'oni atrofidan topilgan 3 ta xumdon ham arxaik davrga oiddir.

Mil.avv. VI-V asrlarda, ya'ni ahamoniylar hukmronligi davrida kulolchilik buyumlarining aksariyati kulolchilik charxida ishlangan. Arxeologlar tomonidan bu davr arxaik davr sifatida belgilangan. Janubiy Orolbo'yi hududlarida mil.avv. VI- IV asrlarga oid 31 hududda sopol ishlab chiqarish bilan bog'liq joylar ro'yxatga olingan. Arxeologik xaritaga 178 ta xumdon tushirilgan. Lekin ularning 38 tasigina to'liq o'rganilgan [2. -B.64]. Bu davrga oid xumdonlar Ko'zaliqir, Jingilje, Bozorqal'a, Xazorasp, Xumbuztepa yodgorliklari va ularning atroflaridan topilgan. Xumdonlar ikkipog'anali bo'lib, dumaloq shaklda qurilgan. Mo'rilar to'g'ri, vertikal shaklda o'rnatilgan. Tadqiqotchilar bunday xumdonlar va kulolchilik charxi qadimgi Xorazmga Marg'iyona yoki Baqtriya aholisini tomonidan olib kelingan degan fikrni ilgari suradilar. Marg'iyona va Baqtriya hududidan topilgan kulolchilik buyumlari, xumdonlar taxlili bu g'oyani asoslaydi. Lekin arxaik davrda qadimgi Xorazmda kulolchilik buyumlarini bo'yashda qizil angobdan fodalanishgan. Bu Xorazm kulolchiligining o'ziga xos tarzda ishlanganligini ko'rsatadi [6. -B.81].

Arxaik davrda xumga ishlov berish jarayonida ham farqlar kuzatilgan. Qadimgi Xorazmda xumlar charx yordamida ishlagan bo'lsa, Sug'dda ular qo'lda yasalgan [6. -B.80]. Xumchalarning osti tekis, bo'yin qismi to'g'ri va keng bo'lgan. Ularning balandligi 0,80-1metrni, eni 0,45-0,50 metr bo'lib, ularda don mahsulotlari saqlangan [6. -B.83]. Bunday yirik xumlar faqat dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholida bo'lgan.

Mil.avv. IV asrda qadimgi Xorazm yozma manbalarda mustaqil davlat sifatida tilga olingan [2. -B.67]. Mil.avv. IV asrda qadimgi Xorazmda shahar hayoti jonlanib, savdo va hunarmandchilik taraqqiy etgan. Kulolchilik sohasida katta yutuqlarga erishilgan. Maxsus hunarmandchilik ustaxonalari tashkil qilingan. Har bir kulolchilik markazida 10-12 ko'ralar qurilgan. Mil.avv. IV-II asrlarga oid 13 ta xumdon o'rganilgan. Ularning barchasi ikkipag'onali, tik mo'rili bo'lgan. Bu davrga oid kulolchilik ustaxonasi o'sha paytda tashlandiq holda bo'lgan Ko'zaliqir yodgorligida qurilgan. Bu ustaxona mil.avv.IV asrlarga oid bo'lib, 8 ta xumdon va xo'jalik chiqindilari bo'lgan o'ralar topilgan. Xumdonlar juft qilib joylashtirilgan. Bu kulolchilik ustaxonasi Kalaliqir 2 yodgorligidan 7 km uzoqlikda joylashgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu ustaxona diniy markaz bo'lgan Qal'aliqir 2 ni kulolchilik mahsulotlari bilan ta'minlagan [5. -B.83].

Qo'yqirilgan qal'a atroflaridan ham 5 dan 8 tagacha xumdonlari bo'lgan kulolchilik ustaxonasi qoldiqlari topilgan. Bunday ustaxonalarda turar joy izlari topilmagan. Ular suv yoqalarida va yirik shaxarlarga yaqin joylarda qurilgan. Shularni inobatga olib tadqiqotchilar, bunday ustaxonalarda hunarmandlar mavsumiy ishlab, faqat buyutma asosida ma'lum vaqtgina ishlagan bo'lishlari mumkin degan fikrni ilgari suradilar [3. -B.122]. Qadimgi Xorazmda xunarmandchilik ustaxonalari yirik shaharlar yaqin bo'lgan joylarda qurilgan. Faqat Xazorasp qal'asi ichida mil.avv. IV asrlarga oid ikkita xumdon kvadrat xom g'isht bilan to'shalgan maydon izi va ko'milgan xum topilgan [7. -B. 168-170]. O'rta Osiyoning Xorazmdan tashqari boshqa qadimgi davlatlarida hunarmandchilik, asosan kulolchilik ustaxonalari shaxar ichida qurilgan [5. -B.84]. Xorazm hududida xunarmandchilik mahsulotlari bozor uchun ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarish jarayonlari hunarmandlar o'rtasida taqsimlangan.

Mil.avv. IV asrdan boshlab, kulolchilikda Xorazmning mahalliy o'ziga xosligi yorqin namoyon bo'lgan. Kulolchilik mahsulotlarining ishlanish texnikasi takomillashgan va tashqi ko'rinishi tubdan o'zgargan. Sopol idishlarning turlari ko'paygan [6. -B.84]. Mil.avv. IV—III asrlardan Xorazm hududida kulollar oyoq charxini qo'llay boshlaganlar [12.-B.83]. Kulolchilik mahsulotlarining loyiga alohida ahamiyat berilgan. Uni yaxshilab pishitib, keyinchalik o'choqda sopol idishlar qizg'ish tusga kirguncha pishirilgan va lentasimon tarzda bo'yalgan [6. -B.76]. Asosiy idishlar och, qizil-jigarrang va jigarrang bilan qoplangan. Yo'l-yo'l, doira va spiralsimon tarzda naqshlar berilgan. Sopol idishlarning tashqi tomoni pardozlangan. Ko'pchilik idishlarning qorin yoki bo'yin qismlari tinalgan yoki bo'rtib chiqqan valik bilan bezak berilgan. Ularga tamg'a

yoki belgilar pishirilmasdan oldin bosilgan. Bunday sopol idishlar Qo'yqirilgan qal'aning quyi qatlamidan, Qalaliqir-1da va Ko'xna-Uaz qal'alaridan topilgan.

Mil.avv. IV-II asrlarga (ilk kangyuy davr–M.G.Vorob`eva) oid sopol idishlarning xarakterli belgilari:

1. Tuvaksimon xum va xumchalarning bo'yin qismiga to'g'rito'rtburchak va uchburchaklar chizilib, ularning ichi shaxmat tarzda –navbatma-navbat qizil va jigirrang bilan bo'yalgan [6. -B.87]. Bunday bezak faqat shu davr uchun xos bo'lgan.

2. Sopol idishlar sirlana boshlangan.

3. Idishlarga turli tamg'alar bosish urf bo'lgan.

4. Xum va xumchalarning qorin qismi spiralsimon bezaklar bilan bezatilgan. Spiralsimon bezaklar shu davrdan boshlanib, keyingi davrlarda ham davom etgan.

5. Ko'za, riton, suvdon kabi yangi tur sopol idishlar paydo bo'lgan [6. -B.136].

6. Xum, xumcha va tuvaklarning ishlanish shakli o'zgargan.

7. Oyoq bilan ishlanadigan charxdan foydalana boshlaganlar [9. -B.84].

8. Ko'zalarning tutqichi sherning boshi sifatida ishlanib, u gardishini tishlab turgan tarzda aks ettirilgan.

9. Sopoldan ritonlar ishlangan. Ularning quyi qismida ot, grifon yoki tuyaning boshi tasviri bilan yakunlangan. Ularni M.G.Vorob'eva mil.avv. IV asrlarga oid deb hisoblagan [6. -B.87]. Keyingi davrlarda ritonlar topilmagan.

10. Suvdonlar (flyagalar) ga alohida bezak berilgan. Ular turli bo'rtma rasmlar bilan bezatilgan. Keyingi davrlarda bo'rtma tasvir suvdonlarda uchramaydi.

11. Mitti sopol idishlarning turlar ko'p bo'lgan. Boshqa davrlarda faqat mitti og'zi keng tuvakcha ishlangan.

Sopol idishlarning qizil rangda lentasimon tarzda bezatilishi arxaik davr elementlaridan biri bo'lib, u mil.avv. IV asrlardan keyin ham davom etgan [6. -B.88]. Lentasimon tarzda bezatilgan sopol idishlar Ko'zalikning yuqori bosqichidan (mil.avv. V asr) topilgan. Bunday bezatilgan sopol idishlar keyingi davrda butun Xorazm bo'ylab tarqalgan. Qo'zaliqir yodgorligining ikkinchi bosqichidan kulolchilik buyumlariga, ayniqsa xumlarga yozuvlar qo'yila boshlangan [6. -B.74]. Qo'yqirilgan qal'aning quyi bosqichidan ham mil.avv.III asrlarga oid xumdan yozuv topilgan. Quyi qirilgan qal'adan topilgan sopol idishlariga o'xshash buyumlar uning atroflaridagi mustaxkamlanmagan qishloqlar va o'ng qirg'oq Xorazmning ko'pgina yodgorliklaridan topilgan. Bunday sopol idish chap qirg'oq Xorazmning Qal'aliqir - 1 da ham topilgan.

Mitti sopol idishlar kulrang (bo'z) tuproqdan mohirona yasilib, loyiga yaxshi ishlov berilgan. Ularning aksariyatiga tirilgan holda bezaklar berilib, sopol idishning tashqi qismi yaltirilgan. Bunday buyumlar ibodat uchun ishlatilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Mil.avv. IV asrlarda yirik kulolchilik ustaxonalari bilan birga kichik xususiy ustaxonalar ham bo'lgan. Bu davrda sopol idishlar mohir hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarishi bilan birgalikda uy sharoitida ishlangan kulolchilik maxsulotlari ham bo'lgan. Ular tuvak, kosa, tovalarni yasab, ro'zg'orda foydalanganlar. Bunday sopol idishlarning loyi tarkibida turli xil qo'shimchalar uchraydi, ko'pol ishlangan va chala pishirilgan [6. -B.135]. Qo'lda ishlangan bunday sopol idishlar ko'proq Xorazm vohasining chegara hududlarida ko'p topilgan. Tadqiqotchilar buni ko'chmanchi chorvadorlar bilan bo'lgan aloqalarning ta'siri deb hisoblashadi, chunki markaziy va yirik shaharlarida ular nihoyatda kam topilgan.

4. Xulosa:

Antik davrda ishlab chiqarilgan sopol buyumlar Xorazm, Sug'd, Baqtriyada deyarli bir-birga shakl jihatdan o'xshash bo'lgan. Tadqiqotchi M.G.Vorob'eva Ko'hna-Uaz sopol idishlari bilan Ayirtam sopol idishlariga o'xshashligini, Kobadiyon IV baland oyoqli qadahlar bilan, og'zi tik qilib ishlangan tuvaklar, gardishi ichki va tashqi tomonga qayilgan idishlarda o'xshashliklar borligini ko'rsatadi [6. -B.168]. Bunday sopol idishlar shimoliy Baqtriyada Kobadiyon III davrida, ya'ni milodiy I asrlarda dastlab kuzatilgan bo'lsa, qadimgi Xorazmda bunday sopol buyumlar milodiy I asr oxiri- milodiy II asrlarda mavjud bo'lganligi aniqlangan.

Mil.avv. IV asrlarda O'rta Osiyo hududlarida yuz bergan siyosiy o'zgarishlardan qadimgi Xorazm ham chetda qolmagan. Davlatlarning siyosiy, iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar kulolchilik sohasining ham rivojlanishiga olib kelgan. Qadimgi Xorazmda kulolchilikning rivojlanishida qo'shni davlatlar, jumladan Marg'iyona va Baqtriya davlatlarining ta'siri sezilarli bo'lgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. // Ўзбекистон тарихи. № 4. 2007. – Б. 22 – 34.
2. Болелов С.Б. Гончарство древнего Хорезма: формы организации ремесла (VI в.до н.э. – IV в. н.э.). // ЭО. №2. 1997. – С. 63 – 75.
3. Болелов С.Б. Керамические обжигательные горны на территории южного и юго – восточного Приаралья (вторая половина I тыс. до н.э. – первые века н.э.). // ИМКУ. Вып. 33. – Ташкент, 2002.
4. Болелов С.Б. Гончарные производства Средней Азии во второй половине I тыс. до н.э. – первой половине I тыс. н.э. (структура и система размещения). // РА. 2006. № 3.
5. Болелов С.Б. Ремесло древнего Хорезма по археологическим данным. // РА. №2. 2013. –С. 77–86.
6. Воробьева М.Г. Керамика Хорезма античного периода. // Керамика Хорезма. Труды ХАЭЭ. Вып. IV. – Москва: Изд-во АН СССР, 1959. – С. 45–220.
7. Воробьева М.Г., Лапиров – Скобло М.С., Незарик Е.Е., Археологические работы в Хазораспе в 1958 – 1960 гг. // МХЭ. – Москва: Наука, 1963. Вып.6. – С. 157 – 201.
8. Мамбетуллаев М. Хумбузтепе – керамический центр южного Хорезма. // Археология Приаралья. Вып. II. – Ташкент. 1984.
9. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. – 352 с.
10. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – Москва: Наука, 1962. – 324.
11. Топрак-Кала-Дворец. ТХАЭЭ. XIV. –Москва: Наука, 1984. – 304 с.
12. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи (қадимги замонлардан ҳозиргача). – Тошкент: Фан, 1959. – 319 б.
13. Яценко С.А. Знаки и тамги ираноязычных народов древности и раннего средневековья. – Москва: Восточная литература, 2001. – 190 с.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000